



O'ZBEKISTONDA MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING TASHKIL ETILISHINING ZAMONAVIY HOLATI

Tohirova Mehrinisabonu

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

ORCID: 0009-0009-6197-4611

mexrinisatoxirova1@icloud.com,

m2002bonu@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi va rivojlanishining zamonaviy holati tahlil qilingan. Mamlakat iqtisodiyotida maxsus iqtisodiy zonalarning tutgan o'rni, ularning investitsiyalarni jalb etish, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining huquqiy-institutsional asoslari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etishning ustuvor yo'nalishlari o'rganilgan. Tadqiqot davomida maxsus iqtisodiy zonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar va xorijiy tajriba asosida istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: maxsus iqtisodiy zona, investitsiya siyosati, investitsiyaviy jozibadorlik, sanoat zonalari, eksport salohiyati, hududiy rivojlanish, iqtisodiy islohotlar, innovatsion faoliyat, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy samaradorlik, infratuzilma, iqtisodiy o'sish.

ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В УЗБЕКИСТАНЕ

Тахирова Мехринисобону

Университет точных и социальных наук

Аннотация. В данной статье проведён анализ современного состояния создания и развития специальных экономических зон в Узбекистане. Освещена роль специальных экономических зон в национальной экономике, а также их значение в привлечении инвестиций, развитии промышленного производства, повышению экспортного потенциала и создании новых рабочих мест. Кроме того, рассмотрены правовые и институциональные основы функционирования специальных экономических зон, существующие проблемы и приоритетные направления их решения. В ходе исследования проанализированы факторы, способствующие повышению экономической эффективности специальных экономических зон, а также перспективы их дальнейшего развития на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: специальная экономическая зона, инвестиционная политика, инвестиционная привлекательность, промышленные зоны, экспортный потенциал, региональное развитие, экономические реформы, инновационная деятельность, иностранные инвестиции, экономическая эффективность, инфраструктура, экономический рост.

CURRENT STATUS OF THE ORGANIZATION OF SPECIAL ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN

Tohirova Mehrinisabonu

University of Exact and Social Sciences

Abstract. *This article analyzes the current state of the establishment and development of Special Economic Zones (SEZs) in Uzbekistan. It highlights the role of SEZs in the national economy, as well as their importance in attracting investments, promoting industrial development, increasing export potential, and creating new employment opportunities. Furthermore, the legal and institutional foundations of SEZ operations, existing challenges, and priority directions for their improvement are examined. The study also analyzes the factors contributing to the enhancement of the economic efficiency of SEZs and explores their future development prospects based on international experience.*

Keywords: *special economic zone, investment policy, investment attractiveness, industrial zones, export potential, regional development, economic reforms, innovation, foreign investment, economic efficiency, infrastructure, economic growth.*

Kirish.

Maxsus iqtisodiy zonalarda (MIZ) faoliyat yurituvchi ishlab chiqarish sub'ektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda soliq siyosati muhim o'rin egallaydi. Soliq tizimidagi mavjud kamchiliklar va belgilangan imtiyozlardan yetarli darajada foydalanilmasligi natijasida mazkur hududlarda yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyati cheklanishi mumkin. Shu sababli soliq mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jumladan, korxonalarining asosiy vositalari bo'yicha tezlashtirilgan amortizatsiya usulini joriy etish yoki amortizatsiya ajratmalari hajmini oshirish orqali ularning soliq yukini kamaytirish mumkin. Bu esa korxonalar ixtiyorida qoladigan moliyaviy resurslar hajmini ko'paytirib, investitsiya faolligini rag'batlantiradi. Shuningdek, xalqaro tajribada samarali faoliyat ko'rsatayotgan va keng ko'lamlil soliq imtiyozlariga ega maxsus iqtisodiy zonalarda mahalliy korxonalar vakolatxonalarini tashkil etish ham iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bunda tashqi iqtisodiy hududlarda shakllangan daromadlarni soliqqa tortish tartibi tegishli huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi lozim.

Adabiyotlar sharhi.

Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish va hududlarni sanoatlashtirishning muhim vositalaridan biri sifatida jahon amaliyotida keng qo'llanilib kelinmoqda. Maxsus iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi va rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish uchun mazkur tushunchaning nazariy asoslari, xalqaro tajriba va milliy iqtisodiyotdagi o'rnini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Maxsus iqtisodiy zonalarining iqtisodiy mohiyati va rivojlanish tendensiyalari xorijlik olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Jumladan, Farol (2011) maxsus iqtisodiy zonalarini iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va investitsiya muhitini yaxshilashning samarali mexanizmi sifatida baholaydi. Uning fikricha, maxsus iqtisodiy zonalar mamlakat iqtisodiyotini jahon bozori bilan integratsiyalashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Madani va Akinchi (2011) tadqiqotlarida maxsus iqtisodiy zonalarining iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinib, ularning muvaffaqiyati infratuzilma darajasi, davlat qo'llab-quvvatlashi va investitsiya muhiti bilan chambarchas bog'liq ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, olimlar

maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyati mamlakatning institutsional muhiti va boshqaruv samaradorligiga ham bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydilar.

Maxsus iqtisodiy zonalarining eksportni rag'batlantirishdagi ahamiyatini Balasubramanyam va Salim (2001) o'rgangan bo'lib, ularning xulosalariga ko'ra, zonalar orqali eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish mamlakat tashqi savdo ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Markaziy Osiyo davlatlarida maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini tadqiq qilgan olimlardan Popov (2017) va Kuznesova (2019) zonalarining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholab, ularning investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etganlar.

O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va rivojlantirish masalalari mahalliy olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Jumladan, Mustafaqulov (2017), Berkinov (2015), Vahobov (2010), Hakimov (2016) va boshqa iqtisodchi olimlar mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirishda maxsus iqtisodiy zonalarining ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish, ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash va boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilmogda. Biroq maxsus iqtisodiy zonalarining zamonaviy holati, ularning iqtisodiy samaradorligi, investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari va hududiy rivojlanishga ta'sirini baholash masalalari hali ham chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning sug'urta faoliyatidagi iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

MIZlardagi korxonalarining investitsiyalarni qabul qilish va o'zlashtirish salohiyati yetarli darajada shakllanmaganligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu holat sarmoyalarni jalb qilish mexanizmlarining to'liq rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Ayrim rahbarlar tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilishga intilishsa-da, ulardan samarali foydalanish va tegishli iqtisodiy mas'uliyatni o'z zimmalariga olishga yetarlicha tayyor emaslar.

Shu munosabat bilan maxsus iqtisodiy hududlarda investitsiya banklari faoliyati uchun huquqiy asoslarni shakllantirish hamda ularga dastlabki bosqichlarda muayyan imtiyozlar berish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarida tijorat banklarining faol ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Chunki real iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror daromad olish imkoniyati yaratilganda moliyaviy institutlar mazkur jarayonlarga qiziqish bilan ishtirok etadilar va investitsiyalarni moliyalashtirish manbai sifatida xizmat qiladilar.

Mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur:

- investitsiya jarayonlarida davlat ishtirokini kuchaytirish va davlat kafolatlari tizimini takomillashtirish;
- iqtisodiyotga sarmoyalarni jalb qilishga xizmat qiluvchi huquqiy va institutsional sharoitlarni yanada rivojlantirish;
- banklar uyushmalari va moliya institutlarining investitsiya faoliyatidagi rolini mustahkamlash;
- eksportga yo'naltirilgan hamda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Mazkur chora-tadbirlar ichki bozorning tovarlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, iqtisodiyotdagi ortiqcha pul massasini samarali yo'naltirish hamda milliy valyutaning xarid qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat sektori va yirik iqtisodiy tuzilmalarning moliyaviy resurslarini investitsiya ehtiyojlariga yo'naltirish orqali real sektorni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengayadi.

Maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etish va samarali boshqarish jarayonida milliy valyuta tizimining holati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, milliy valyutaning barqarorligi, uning xarid qobiliyati, inflyatsiya darajasi, eksportni rag'batlantirish va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi mazkur hududlar faoliyati natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois milliy valyuta siyosati va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar maxsus iqtisodiy hududlarni rivojlantirish strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyotida milliy valyuta asosan ichki bozor munosabatlariga xizmat qilib kelmoqda. Bunday holat esa maxsus iqtisodiy zonalarning tashqi iqtisodiy muhit bilan samarali integratsiyalashuvini ma'lum darajada cheklaydi. Shu sababli mazkur hududlarning barqaror faoliyat yuritishi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etishini ta'minlash uchun bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

Avvalo, milliy valyuta ayirboshlash tizimining samaradorligini oshirish maqsadida bozor tamoyillariga asoslangan erkin suzuvchi valyuta mexanizmini rivojlantirish zarur. Bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishda qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, valyuta kursini shakllantirish jarayonida mamlakatning tashqi bozorlardagi asosiy raqobatchilari mahsulotlarining narx darajasi va tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida ichki inflyatsiya jarayonlarining mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligiga salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan doimiy monitoring tizimini yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, mamlakatning oltin-valyuta zaxiralarini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir. Bunda tashqi sarmoyalarni jalb qilish intensiv usul sifatida, mavjud ichki iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanish esa ekstensiv usul sifatida qaralishi mumkin.

Inflyatsiya darajasining ortishiga yo'l qo'ymaslik uchun ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida raqobat muhitini rivojlantirish, bozor infratuzilmasini takomillashtirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikka qaratilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Maxsus iqtisodiy zonalarning samarali faoliyat yuritishi tashqi savdo munosabatlarini liberallashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va eksport faoliyatini rag'batlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozorlarga yo'naltirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, eksportga ixtisoslashgan korxonalarni tashkil etish va ularning faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etish jarayonida jahon bozoridagi kuchli raqobat sharoitiga moslasha oladigan, yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarni rivojlantirish hamda samarali pul-kredit siyosatini yuritish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishning o'zi mustaqil maqsad emas. Ular mamlakatning umumiy iqtisodiy taraqqiyot strategiyasining tarkibiy qismi sifatida qaralib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, sanoatni modernizatsiya qilish, ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash va eksport hajmini oshirish orqali valyuta tushumlarini ko'paytirishga xizmat qilishi lozim.

1990-yillarning boshlarida xalqaro ekspertlar tomonidan o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga turizm sohasini rivojlantirish maqsadida maxsus turistik hududlar tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Xususan, Samarqand va Buxoro shaharlarining boy tarixiy-madaniy merosi negizida erkin turistik zonalarini shakllantirish g'oyasi ilgari surilgan. Bunday hududlar kelgusida xalqaro turizmning yirik markazlariga aylanish imkoniyatiga ega ekanligi ta'kidlangan.

O'zbekistonda xalqaro turizmga ixtisoslashgan maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etishning huquqiy asoslari mamlakat rahbariyati tomonidan qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Ularda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, tarixiy-madaniy ob'ektlardan samarali foydalanish hamda mamlakatning xalqaro turistik jozibadorligini oshirishga qaratilgan vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida Samarqand shahrida maxsus turistik iqtisodiy hududni tashkil etish loyihasi ishlab chiqilgan. Keyinchalik mazkur loyiha tegishli davlat organlari tomonidan ko'rib chiqilib, uning asosiy yo'nalishlari ma'qullangan. Ayrim jihatlarni yanada takomillashtirish zarurati tufayli loyiha ustida qo'shimcha ish olib borilgan.

Samarqand hududida rejalashtirilayotgan maxsus turistik zona o'zining qulay geografik joylashuvi, boy tarixiy-madaniy merosi, arxeologik yodgorliklari, milliy an'analari va tabiiy resurslari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu yerda xalqaro standartlarga javob beradigan mehmonxonalar, zamonaviy aloqa vositalari, rivojlangan transport infratuzilmasi hamda xizmat ko'rsatish tizimining mavjudligi mazkur hududning istiqbolli loyiha sifatida shakllanishi uchun mustahkam asos yaratadi.

Avvalo, xalqaro turizmga ixtisoslashgan maxsus ochiq iqtisodiy hududlar (XTMOIH) muayyan hududning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm hisoblanadi. Bunday hududlarni tashkil etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholi bandligini ta'minlash, eksport imkoniyatlarini kengaytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, mamlakatga xorijiy valyuta oqimini ko'paytirish hamda davlatning xalqaro iqtisodiy va siyosiy nufuzini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Shu nuqtai nazardan, XTMOIH iqtisodiy munosabatlarni modernizatsiya qilish va hududiy rivojlanishni jadallashtirish vositasi sifatida qaraladi.

Samarqand viloyatida xalqaro turizmga ixtisoslashgan maxsus iqtisodiy hudud tashkil etish bo'yicha dastlabki ishlar 1996 yilda boshlangan. Ushbu maqsadda viloyat hokimligi tashabbusi bilan turizm sohasi mutaxassislari, iqtisodchilar hamda maxsus iqtisodiy hududlarni shakllantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi ekspertlardan iborat ishchi guruh tuzilgan. Mazkur guruh xalqaro tajribani o'rganish maqsadida Rossiyaning Kaliningrad viloyatidagi «Yantar» maxsus iqtisodiy hududiga tashrif buyurgan hamda Isroil, Turkiya va Xitoy kabi mamlakatlarda amal qilayotgan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini tahlil qilgan.

Keyingi bosqichda, ya'ni 1997 yilda Samarqandda XTMOIHni tashkil etish konsepsiyasi, uning rivojlanish dasturi va tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya shakllantirildi. Ishchi guruh tomonidan bir necha yil davomida normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlanib, 1999 yilga kelib ushbu jarayon asosan yakunlandi. Loyihaning dastlabki varianti turizm sohasi bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan vazirlik va idoralarga muhokama uchun taqdim etildi. Xususan, Adliya vazirligi, Makroiqtisodiyot va statistika organlari, Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi, Markaziy bank, «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi hamda Bojxona qo'mitasi tomonidan tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

Samarqand shahar hokimining 1997 yil 7 oktyabrdagi qarori asosida mazkur loyihani amaliy jihatdan boshqarish uchun vaqtinchalik ma'muriy tuzilma tashkil etildi va uning vakolatlari belgilab berildi. Biroq keyingi yillarda mazkur hududni to'liq shakllantirish jarayoni yakuniga yetkazilmadi. Shunga qaramasdan, Samarqand turistik iqtisodiy hududini tashkil etish loyihasi davlat organlari tomonidan istiqbolli tashabbus sifatida baholanib, turli bosqichlarda o'rganib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy hududlarni rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashda «Maxsus iqtisodiy hududlar to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qonun mamlakatda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, ichki bozorni raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlash, zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, hududlarni kompleks rivojlantirish hamda ilg'or boshqaruv tajribalarini joriy etish kabi strategik vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Qonunchilikka muvofiq, maxsus iqtisodiy hududlar faqat vakolatli davlat organlarining qarorlari asosida tashkil etiladi. Ular uchun alohida huquqiy maqom, faoliyat muddati va hududiy chegaralar belgilanadi. Bunday hududlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlari va investorlar vakillaridan tashkil topgan boshqaruv kengashlari shakllantiriladi. Bu esa hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda turli manfaatdor tomonlarning ishtiroki va hamkorligini ta'minlaydi.

O'zbekistonda maxsus iqtisodiy hududlar tashkil etish bo'yicha dastlabki amaliy tajribalar ularning huquqiy maqomi to'liq shakllantirilishidan avval boshlangan. Xususan, 1995 yilda Toshkent shahrida «O'zelektroapparat» ishlab chiqarish birlashmasi hamda unga tutash hududlar negizida «Zavod plyus mahalla» modeli sinov tariqasida joriy etildi. Mazkur tajriba mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xususiy sektorni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan edi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, bunday tuzilmalarni samarali maxsus iqtisodiy hududlarga aylantirish uchun tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonlarini soddalashtirish, soliq yukini optimallashtirish hamda mahalliy xom ashyo resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur hisoblanadi.

Shu bilan birga, mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida bir qator texnoparklar tashkil etildi. Ular ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni o'zaro integratsiya qiluvchi zamonaviy infratuzilma shakli sifatida faoliyat yuritadi. Bunday markazlar yangi texnologiyalarni sanoatga tezkor joriy etish va innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish imkoniyatini yaratadi. Jumladan, Toshkent davlat texnika universiteti va Samarqand davlat universiteti qoshida shakllangan ilmiy-innovatsion muhit mazkur yo'nalishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda maxsus iqtisodiy hududlarni rivojlantirishga qaratilgan bir qator istiqbolli loyihalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular orasida ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Jizzax maxsus iqtisodiy hududi hamda turizm sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan Samarqand maxsus iqtisodiy hududi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun zarur tashkiliy va iqtisodiy asoslar shakllantirilgan.

1996 yil oxirida xorijiy investitsiyalar agentligi va Yaponiyaning yirik sanoat kompaniyasi hisoblangan Sumitomo Corporation hamkorligida Toshkent shahrining Bektemir tumani hududida o'zbek-yapon sanoat parkini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Mazkur loyiha xalqaro darajada yuqori baholanib, istiqbolli investitsion dastur sifatida e'tirof etildi. Keyinchalik tomonlar o'rtasida tegishli kelishuv imzolaniib, loyihani amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy asoslari belgilandi. Unga muvofiq, yapon kompaniyasi va mahalliy hokimiyat asosiy ta'sischi sifatida ishtirok etgan bo'lsa, xorijiy investitsiyalar agentligi loyihani muvofiqlashtiruvchi tashkilot vazifasini bajargan.

Loyiha doirasida yengil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, elektronika va elektrotexnika sohalarida yuqori texnologiyalarga asoslangan ko'plab yangi korxonalarni joylashtirish nazarda tutilgan edi. Sanoat parki uchun ajratilgan hudud transport va logistika nuqtai nazaridan qulay joylashgan bo'lib, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning asosiy qismi tashqi bozorlarga yo'naltirilishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga, loyihaning ijtimoiy ahamiyati ham yuqori baholangan, chunki uning amalga oshirilishi minglab yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini berishi kutilgan.

Ushbu tashabbus mamlakat iqtisodiyotiga yirik hajmdagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, zamonaviy texnologiyalar transferini ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, mazkur loyihalar aholi turmush darajasini yaxshilash va O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida baholangan.

Jizzax va Samarqand maxsus iqtisodiy hududlarida mahalliy resurslar hamda mehnat salohiyatidan kelib chiqqan holda turli ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish rejalashtirilgan. Bu hududlarda xom ashyo bazasining mavjudligi, mehnat resurslarining yetarliligi va mutaxassislar malakasining nisbatan yuqoriligi sanoat korxonalarini joylashtirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Xususan, charm va charm mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi xorijiy investorlar uchun jozibador yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jahon bozorida ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabning yuqoriligi, xom ashyoni yetkazib berish xarajatlarining nisbatan kamligi hamda ishlab chiqarishni tashkil etish uchun katta miqdordagi kapital sarmoyalar talab etilmasligi mazkur sohaning investitsion jozibadorligini oshiradi. Shuningdek, ayrim hududlarda kemasozlik, sellyuloza va qog'oz mahsulotlari sanoatini rivojlantirish uchun ham muayyan iqtisodiy imkoniyatlar mavjud. Jizzax maxsus iqtisodiy hududida esa to'qimachilik, qurilish materiallari va kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish istiqbolli yo'nalishlar sifatida qaraladi. Bu tarmoqlarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan xom ashyo manbalari, ishlab chiqarish infratuzilmasi va mehnat resurslari hududda yetarli darajada shakllangan.

So'nggi yillarda MDH mamlakatlarida innovatsion rivojlanishning muhim elementi sifatida texnoparklar tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Qozog'istonda Olmaota shahri yaqinidagi Olotov hududida axborot texnologiyalari parkini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilgan. Bunday tajriba innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston uchun ham texnoparklar tizimini rivojlantirish strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan texnoparklar yuqori iqtisodiy samara berishi mumkin. Mavjud tahlillar mamlakatda axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minot sohasida faoliyat yurituvchi ko'plab mahalliy va xorijiy kompaniyalar mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu bozorning bosqichma-bosqich rivojlanishi investorlar qiziqishining ortishiga va jahonning yetakchi IT-kompaniyalari bilan hamkorlik imkoniyatlarining kengayishiga olib kelmoqda.

Innovatsion hududlarning shakllanishi mutaxassislar o'rtasida bilim va tajriba almashinuvini kuchaytiradi, yangi texnologiyalarni yaratish va tijoratlashtirish jarayonlarini tezlashtiradi hamda dasturiy mahsulotlar sanoatining raqobatbardoshligini oshiradi. Bunday infratuzilmani barpo etish katta moliyaviy xarajatlarni talab qilmaydi, chunki uning asosiy resursi yuqori malakali inson kapitali hisoblanadi.

Shu sababli texnoparklarni texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Universitetlarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar, innovatsion ishlanmalar va malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoni texnoparklar uchun muhim intellektual baza vazifasini o'taydi. Kelajakda bunday innovatsion markazlar milliy dasturlash va raqamli texnologiyalar sohasining tayanch nuqtalariga aylanishi mumkin. Bugungi kunda mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kompleks yechimlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish jarayonlari jadal rivojlanib borayotgani ham mazkur yo'nalishning istiqbolli ekanligini tasdiqlaydi.

Ushbu yo'nalishdagi amaliy tashabbuslarga misol sifatida yosh dasturchilarni tayyorlash va ularning innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan markazlar faoliyatini keltirish mumkin. Bunday markazlarda tahsil olayotgan yoshlar dasturlash sohasida egallagan nazariy bilimlarini amaliy loyihalar orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maxsus ilmiy-texnik hududlarni (MITH) tashkil etish jarayonida samarali huquqiy va institutsional muhitni shakllantirish ustuvor ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan mazkur sohani tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda ilmiy-texnik hududlarning maqsadi, vazifalari va faoliyat yuritish tartibini belgilab beruvchi hukumat qarorlarini qabul qilish talab etiladi.

Xususan, dasturiy ta'minot mahsulotlari, internet texnologiyalari va yuqori intellektual salohiyat talab qiluvchi ishlab chiqarish sohasiga ixtisoslashgan texnoparklar, texnopolislar va innovatsion shaharchalar faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonunchilik mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday huquqiy asos quyidagi muhim tamoyillarga tayanishi mumkin:

- mahsulot ishlab chiqarishni asosan tashqi bozorlarga yo'naltirish;
- yangi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonlarini soddalashtirish;
- xorijiy investorlarga ilmiy va texnologik jihozlarni bojxona to'lovlarisiz olib kirish imkoniyatini yaratish;
- eksport qilinadigan dasturiy mahsulotlarni turli yig'im va bojlardan ozod qilish;
- yangi tashkil etilgan innovatsion korxonalar uchun ma'lum muddatgacha soliq imtiyozlarini taqdim etish.

Bunday yondashuv davlat tomonidan innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan kompleks siyosatni amalga oshirish imkonini beradi. Natijada texnoparklar va texnopolislar nafaqat yangi texnologiyalarni yaratish markaziga, balki ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlovchi muhim institutlarga aylanadi. Ular intellektual kapitalni rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va kelajak jamiyatining iqtisodiy modelini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda ham O'zbekistonda mazkur yo'nalishda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha vakolatli davlat organlari tomonidan dasturiy mahsulotlar industriyasini kengaytirish va raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan konseptual hujjatlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, ilmiy-texnik hududlarni tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar ham belgilangan.

Bu kabi hududlarning samarali ishlashi uchun yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish va ularni saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli dasturchilar, muhandislar va tadqiqotchilarning mehnat haqini xalqaro mehnat bozori talablariga yaqinlashtirish zarur. Bu nafaqat raqobatbardosh kadrlarni jalb qilishga, balki intellektual resurslarning xorijga chiqib ketishini kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun imtiyozli sharoitlar yaratish masalasi ham muhimdir. Chunki maxsus ilmiy-texnik hududlarda yaratilgan mahsulot va xizmatlar, avvalo, tashqi bozorlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va samarali faoliyat yurituvchi ilmiy-texnik hududlar mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining jadal rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotning raqamlashuvini tezlashtirib, mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini oshiradi.

O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish g'oyasi o'tgan asrning so'nggi o'n yilligidayoq iqtisodchilar va mutaxassislar tomonidan milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning samarali vositalaridan biri sifatida baholangan. Jahon tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, bunday hududlarni tashkil etish xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni joriy etish, eksport hajmini oshirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish kabi muhim vazifalarni hal etishda katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, maxsus iqtisodiy va ilmiy-texnik hududlar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim drayverlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotdan quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Jahon tajribasidan maxsus iqtisodiy zonalarning yaratilishi va samarali faoliyat olib borishi mamlakatning iqtisodiy o'sishi, ishsizlikning kamayishi, mahalliy xomashyolardan foydalangan holda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ular eksportini oshirish, mamlakatning valyuta va to'lov balansini mustahkamlash, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni jalb qilish kabi bir qator ijobiy natijalar ushbu izlanish davomida o'rganilib chiqildi. Agar erkin iqtisodiy zonalar mavjud hududlarda ishlovchilarning ish haqlari o'sa boshlasa, xorijdan investitsiya ko'proq kela boshlasa, ishsizlar soni kamaya boshlasa, bozorda tovar va xizmatlar ko'paya boshlasa, demak maxsus iqtisodiy zona yaxshi ishlamoqda.

2. Rivojlangan davlatlarda MIZlarni tashkil etishdan asosiy maqsad hududlar faoliyatini iqtisodiy mustahkamlash, ma'lum bir sanoat sohalararo yoki ba'zi bir xollarda aniq bir korxonalar faoliyatini qo'llab quvvatlash maqsadida tashkil etiladi. Bundan tashqari maxsus iqtisodiy zona yaratish uchun joy tanlanyotgan vaqtda, hududda ishsizlik darajasi va aholining pul daromadlari kabi ko'rsatkichlar o'rganib chiqiladi. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan davlatlardagi MIZ larning yana bir xususiyati shundaki, ularda xorijiy investitsiyaga emas, balki milliy xususiy kapitalga ustuvorlik beriladi. AQSH tajribasidan ham ko'rishimiz mumkinki, tashqi savdo zonalarining yaratilishdan asosiy maqsadi hududda ishsizlik darajasini pasaytirish va xalqaro savdoda ko'proq ishtirok etish bo'lgan. Sababi, aynan 1930 -yillardagi AQSH "Buyuk depressiya" davri, AQSH hukumatining ishsizlikni kamaytirish borasidagi siyosatlaridan aynan biri – bu maxsus iqtisodiy zonalarning yaratilishi bo'lgan. Tadbirkorlik hududlari esa, aynan biror bir hudud yoki korxonalar faoliyatini uchun imtiyozlar berish orqali hududning rivojiga xissa qo'shishdir va bunday hududlar faqat ichki bozorni qo'llab - quvvatlash uchun tashkil etiladi. Shuningdek, AQSH dagi yana bir MIZ shakli bu texnoparklar bo'lib, ularning yaratilishdan asosiy maqsadi innovatsion faoliyatni olib borish, yuqori ilmiy sig'imli texnikalarni yaratishdir. Bunday hududlar, asosan, biror universitet tarkibida tadqiqot markazlari sifatida yoki alohida tadqiqot markazi sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

Adabiyotlar / *Литература* / Reference:

Berkinov B.B. (2015) *Mintaqalar iqtisodiy rivojlanishi va investitsiyalar samaradorligi*. – Toshkent: Fan.

De Andreis, F. (2019) *The Principles behind a Strategic Plan*. *Open Journal of Applied Sciences*, 9, 240-245. doi: 10.4236/ojapps.2019.94020.

Dimitrou, H.; Thomson R. (2007): *Strategic Planning for Regional Development in the UK, A review of principles and practices*, Routledge.

Forrester, J.W. (1992) *Policies, Decisions and Information Sources for Modeling*. *European Journal of Operation Research*, 59, 42-63. [http://dx.doi.org/10.1016/0377-2217\(92\)90006-U](http://dx.doi.org/10.1016/0377-2217(92)90006-U)

Hakimov Q.A. (2016) *Hududiy iqtisodiyot va investitsiyalarni boshqarish*. – Toshkent: Fan va texnologiya.

Ljiljana Vasilevska. *Strategic planning as a regional development policy mechanism: European context*. *SPATIUM International Review*. No. 21, December 2009, p. 19-26.

Mustafaqulov Sh. (2017) *Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning nazariy va metodologik asoslari*. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA.

Salet, W.; Faludi, A. (2000): *Three Approaches to Strategic Spatial Planning*, in: *The Revival of Strategic Spatial Planning*. Amsterdam, Royal Netherlands Academy of Arts and Sciences, pp. 1–10.

Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. (2010) *Xorijiy investitsiyalar*. – Toshkent: Moliya.